


**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023-YIL YANVAR-NOYABR
(DASTLABKI MA‘LUMOT)**





Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan 16441,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 14375,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 87,4 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog'iston respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nukus shahri (47,1 %), Taxiatosh tumani (11,8 %), Qo'ng'iro't tumani 7,0 %), To'rtko'l tumani (4,7 %) Amudaryo tumani (4,2%) hamda Beruniy tumani (3,6%) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Qo'ng'iro't tumanida (112,6 %), Bo'zatov tumanida (110,5 %) hamda Chimboy (108,6 %) tumanida kuzatildi.





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 235,2 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,4 % ga toʻgʻri keldi.

*yanvar-noyabr
mlrd. soʻmda*




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*

*yanvar-noyabr
FHI, % da*



yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Ohaktosh, ming t.	214,4	160,9	-53,5
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	102,1	151,0	48,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m	1220,4	916,0	- 304,4
Gaz kondensati, ming t.	73,3	58,8	- 14,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14375,2 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 87,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04% ni (2022-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 51,7 % (60,7%), o'rta-quyi texnologiyali – 6,1% (4,8%), quyi texnologiyali – 42,2 % (34,3 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi– 52,1 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–19,7 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,9 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi–19,5 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,4 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—4,7 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,5%), mebel ishlab chiqarishning ulushi—1,6% (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 205,3 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,2 ming tonna tozalangan guruch (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 196,6% ga ko'paygan), 413,1 ming tonna portlandsement (56,7% ga ko'paygan), 4,7 ming tonna o'simlik yog'i (29,0 % ga ko'paygan), 13,8 ming tonna kalava ip (8,3% ga ko'paygan), 30,1 ming tonna paxta tolasi (0,1% ga ko'paygan), 3008,4 ming litr aroq (10,1% ga kamaygan) hamda 58,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,8% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	3345,8	3008,4	-337,4
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	3618,4	4667,1	1048,7
Portlandsement, ming t.	263,7	413,1	149,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	94,7	58,9	- 35,8
Paxta tolasi, ming t.	30,1	30,1	-

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 51,5% bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,1% ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 7397,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,5 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 680,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,6 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 2561,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 246,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2650,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 174,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 118,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 96,3 mlrd. so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish—korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 205,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 229,8 mlrd. so'm ekani kuzatildi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1734,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,6 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 95,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 80,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-noyabr	2023-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	4823,8	4608,9	-214,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	41,6	33,3	-8,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	100328,2	104278,7	3950,5

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,2 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.

yanvar-noyabr
mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-noyabr
FHI, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 3,3 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2,4 % ga ko'paydi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 46,6 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7925,9	8118,8	192,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	60573,0	62570,2	1997,2
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	16259,7	8686,3	-7573,4

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2444,9 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 14,9 % ga to'g'ri keldi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2028,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 0,3 % ga kamaygan. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 416,4 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 32,7 % ga oshdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 83,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 17,0 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 86,6 %*, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 13,4 %* ni tashkil etdi.

* 2023-yil hisoblash metodikasi bo'yicha